Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti 80 yoshda

Mexanika-moddiy jismlarning harakatini va ular orasidagi o’zaro ta’sirni o’rganadigan fandir. Ushbu fan sohasi qadim zamonlardan beri xalq farovonligini oshirishga xizmat qilgan, shu jumladan, M.T.O’rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti ham o’zining 80 yillik faoliyati davomida mexanikaning elastiklik va plastiklik nazariyasi, nazariy va amaliy mexanika, qurilish mexanikasi,konstruktsiyalar mustahkamligi va zilzila bardoshligi, melioratsiya aerogidrodinamika va ko’p fazali muhitlar mexanikasi, tenglamalarini integrallash usullari va boshka sohalarida mexanikaning fundamental asoslarini rivojlantirishga munosib hissa qo’shib kelmoqda.



Mazkur kitobda institutning tashkil topishi va 80 yillik faoliyati davrida zamonaviy mexanika fanini shakllanishi hamda respublikamiz iktisodiyot tarmoqlarini,texnika va texnologiyasini,sanoatini yanada rivojlanishiga o’zlarining noyob kashfiyotlari bilan ulkan hissa qo’shgan mashhur olimlarimiz faoliyati,institut tarkibidagi ilmiy laboratoriyalarning tashkil topish tarixi, ularda ilmiy izlanishlar olib borgan

olimlar hamda erishilgan ilmiy natijalari keltirilgan.